

## FRAZEOLOGIZMLARNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

**Shakirova Nodiraxon Murodjon qizi**

*e-mail: shakirovan@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola frazeologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan tilshunosligidagi frazeologizmlar tasnif qilinadi. Tilshunos olimlarning fikrlari tahlil qilinadi. Ularga umumiy xulosalar beriladi.*

**Tayanch so'zlar:** *frazeologik birlik, frazeologizm, leksema, morfema, sintaktik bog'lanish, idiomatik ibora*

**Annotation:** *The article is devoted to the field of phraseology, in which phraseological units in are classified.. They are given general conclusions by analyzing the views of linguists*

**Keywords:** *phraseological unit, phraseology, lexeme, morpheme, syntactic connection, idiomatic expression*

Tilshunoslikda frazeologiya bu tasvirlovchi so'zlar masalan idiomalar, frazeologik fe'llar va leksikologik birliklarning boshqa turlarini o'rganadigan fan hisoblanadi[3].

Frazeologiya, asosan, frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganadi, shu bilan birga frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlaydi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarning nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lgan) so'z birikmalaridan farqlab olish va shu asnoda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir [5].

Frazeologiyaning asosiy masalalari frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash hisoblanadi va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llaniluvchi so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqalar.

Frazeologiyaning predmeti frazeologik belgilarning kategorik belgilarini o'rganish hisoblanadi, ular asosida frazeologik birliklarning asosiy belgilari aniqlanadi va frazeologik birliklarning tilning maxsus birliklari sifatida mohiyati to'g'risidagi masala hal qilinadi va frazeologik birliklarning nutqda ishlash qonuniyatlari va ularning shakllanish jarayonlari aniqlanadi [4].

Frazeologik birliklar xususiyatlari ularning tashqi ko'rinishiga qarab ham tasnif qilinishi mumkin. Bunda ko'proq frazeologik iboralar tarkibidagi so'zlar soniga diqqat qilinadi. Ko'plab tilshunoslar iboralar ikki so'zdan ortiq bo'lishini aytishadi. Biroq, kuzatishlarning natijasi shuni ko'rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Lekin ba'zi tilshunoslar bir so'zdan iborat iboralar borligini aytadilar. Jumladan, professor Jafarov bir so'zdan iborat bo'lgan iboralar idiomatik iboralarning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'lishini ta'kidlab, ular qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanishini va to'gridan to'g'ri fikr anglatmasligi bilan qo'shma so'zlardan farq qilishini aytib o'tadi.

Bir so'z orqali ham idiomatik ma'no anglashilishi mumkin lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerakligi haqida V.V. Vinogradov, A. Abakumov, A. Shaxmatovlar o'zlarining qimmatli fikrlarni aytib o'tishgan.

Akademik V.V. Vinogradov frazeologik birikmalarining taraqqiyoti frazeologik

butunlikdan boshlanib , frazeologik qo'shilmalarga aylanishi zarurligi , frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar keyinchalik bo'lsa, frazeologik qo'shilmalar taraqqiy etib borishi kerakligini ta'kidlaydi. V.V. Vinogradovning fikriga asoslanib, A. Shaxmatov "Idiomatik so'zlar frazeologik qo'shilmalar negizida vujudga keladi" degan fikrni ilgari suradi[2].

Rus olimi V. Vinogradov frazeologik birliklarni ma'nosiga asoslanib semantik jihatdan klassifikatsiya qiladi va ularni 3 turga bo'ladi:

1. Phraseological fusions bular frazeologik birliklar hisoblanib , so'z tarkibidan umumiy ma'noni xulosa qilib bo'lmaydi.

red tape (byurokratlar)

a mare's nest ( chalg'itish)

2. Phraseological units bular ifoda bo'lib , so'z tarkibidan ma'noni xulosa qilish mumkin . Umumiy ma'no ko'chma ma'noga asoslangan bo'ladi .

to show one's teeth ( nazarga ilmaslik )

to stand one's guns ( birovning fikriga qarshi turish )

3. Phraseological collocations bular frazeologik birikmalar bo'lib, so'zlardan biri to'g'ri ma'noda qo'llanilgani holda boshqasi ko'chma ma'noda bo'ladi

to meet requirements (talab bilan tanishtirmoq)

to attain success (muvaffaqiyatga erishmoq)

Frazeologik birikmalarning bu guruhida ba'zi qismlar ko'chma ma'noni yo'qotmasligi mumkin .

Masalan: to meet the needs, to meet the demand, to meet the necessity; to have success

Bu birikmalar sinonim emas , umumiy ma'no o'zgaradi lekin asosiy ma'no o'zgarmaydi [3].

Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham boshqa qardosh tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan , shuning uchun ham ularning mualliflari va kelib chiqish manbalari ma'lum emas . Shu ma'noda frazeolog olim A.V. Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko'pchiligining muallifi noma'lum ekanligi va ular xalq tomonidan yaratilgan , degan fikrni ilgari surgan [2].

Professor Kunin frazeologik birliklar , frazeomatik birliklar va aralash holatlarni farqlab beradi. Frazeologik birliklar to'liq yoki qisman ma'nosini o'zgartiradi , frazeomatik birliklar esa uning adabiy ma'nosida qo'llaniladi. Ular ikkalasi frazeologik turg'unigiga qarab xarakterlanadi , erkin frazalar va qo'shma so'zlardan farq qiladi [3].

A.V. Kunin quyidagi jihatlarga ko'ra turg'unlik nazariyasi rivojiga o'z hissani qo'shdi.

1. stability of usage – nutqda tayyor holda olingan qayta ishlangan frazeologik birlik

2. lexical stability – frazeologik variantlashishda qisman yoki umuman takrorlanmas frazeolog birlik tarkibidir .

3. Semantic stability -frazeologik birliklarning leksik turg'unligiga asoslangan . Ayrim o'zgarishlar bo'lishiga qaramay farzaning ma'nosi sylanib qolinadi va kuchli, kuchsiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin.

4. Syntactic stability bunda frazeologik birliklar xarakter xususiyatalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) tayyor qilingan nusxasi

b) struktural bo'linishi

c) morfologik beqarorligi

- d)leksik tarkibning o'zgarasligi
- e)semantic birlik
- f) sintaktik moslashuvchanlik

Barcha ko'chma ma'noda ishlatilgan , nutqqa tayyor holda kiritilgan gap, birikmalar, frazeologik birliklar hisoblanadi, va hamma turg'un birikmalar , maqol va hikmatli so'zlar , frazalar va idiomalar barчасini o'z ichiga oladi .Har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til millatining madaniyati , urf - odati va yashash tarzidan kelib chiqqan holda shakllanib , rivojlanib boradi va o'z tilini boyitadi.

#### REFERENCE:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка.–М. 1986.
2. Zaripova R.I., Frazeologizmlarning o'rganilishi va taraqqiyot bosqichlari.Ilmiy axborot.3/2017
- 3.Ismoilova G., Frazeologik birliklar klassifikatsiyasi.
- 4.Shakirova N. M., Frazeologizm tilshunoslikning muhim bir bo'limi.Talqin va tadqiqotlar Respublika ilmiy uslbiy jurnal. 5-son 1-qism. 2022y
- 5.Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida.-T.:O'zMU to'plami. 2007.